

## Jaholatga qarshi ma'rifat tuyg'usi bilan



Bugun bizni turli axborot vositalari, xususan, internet saytlarining xavfi, "ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlari ko'proq tashvishga solmoqda. Shu kabi holatlarning oldini olish uchun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti hamda "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti talabalari joylashgan 5 - talabalar turar joyida "Jaholatga qarshi - ma'rifat" mavzusida davra suhbat bo'lib o'tdi. Unda "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti hamda "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti dekan muovinlari H.Eshova, O.Ruziboev, tarbiyachi pedagog Sh.Ilamova, fakultet tyutorlari D.Xursandova, M.Vafoeva, S.Ibragimovalar hamda talaba-yoshlar ishtirok yetishdi. Tadbirda 1.Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi M. Ulugbek tumani ma'naviyat va ma'rifat bulinmasi bosh mutaxassis shoir Botirov Nasriddin Bobomurodovich. 2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita Mirzo Ulug'bek tumani bosh mutaxassis Amonov Axmadxon Iso o'g'li o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etdi. Ilmsizlik va jaholat - jamiyatimizning eng katta dushmani, ayni paytda jamiyat uchun - katta ofatdir.



Tadbir so'ngida talaba-yoshlarga shoirimiz tomonidan she'rlar o'qildi. Davra suhbat qizg'in bahs-munozaralarga boy bo'lib, unda talaba-yoshlar faol ishtirok etishdi. Ishtirokchilar mutaxassisga o'zlarini qiziqtirgan savollarni berib javob olishdi.